



INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA QO‘SHMA SO‘ZLARNING STRUKTURAVIY TURLARI

Nurimbetova Malika Karamatdin qizi,
Qoraqalpoq davlat universiteti Chet tillari fakulteti 2-bosqich talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20751286>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq tillarida qo‘shma so‘zlarning strukturaviy turlari qiyosiy-lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qo‘shma so‘zlarning hosil bo‘lish mexanizmlari, ularning morfologik tuzilishi hamda semantik xususiyatlari o‘rganildi. Shuningdek, ingliz tilida qo‘shma so‘zlarning yozilish shakllari (closed compounds, hyphenated compounds, open compounds) hamda qoraqalpoq tilidagi qo‘shma so‘zlarning asosiy struktur modellari aniqlab berildi. Natijada qo‘shma so‘zlar tilning leksik boyligini oshirishda va murakkab tushunchalarni ifodalashda muhim rol o‘ynashi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: qo‘shma so‘z, kompozitsiya, so‘z yasash, struktur tahlil, ingliz tili, qoraqalpoq tili.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительно-лингвистический анализ структурных типов сложных слов в английском и каракалпакском языках. В ходе исследования рассматриваются механизмы образования сложных слов, их морфологическая структура и семантические особенности. Особое внимание уделяется типам сложных слов в английском языке (closed compounds, hyphenated compounds, open compounds), а также основным структурным моделям сложных слов в каракалпакском языке. В результате исследования установлено, что сложные слова играют важную роль в обогащении лексического состава языка и в выражении сложных понятий.

Ключевые слова: сложные слова, композиция, словообразование, структурный анализ, английский язык, каракалпакский язык.

Abstract. This article presents a comparative linguistic analysis of the structural types of compound words in English and Karakalpak languages. The study examines the mechanisms of compound word formation, their morphological structure, and semantic features. Particular attention is paid to the structural types of compound words in English (closed compounds, hyphenated compounds, open compounds) as well as the main structural models of compound words in the Karakalpak language. The results show that compound words play an important role in enriching the lexical system of language and expressing complex concepts.

Keywords: compound word, composition, word formation, structural analysis, English language, Karakalpak language.

Kirish. Til taraqqiyotida yangi leksik birliklarning hosil bo‘lishi muhim lingvistik jarayonlardan biri hisoblanadi. Xususan, so‘z yasashning samarali usullaridan biri bo‘lgan kompozitsiya, ya’ni qo‘shma so‘z hosil qilish jarayoni tilning leksik boyligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki murakkab tushunchalarni ifodalash zarurati paydo bo‘lganida, til mavjud leksik elementlarni birlashtirish orqali yangi so‘zlar yaratadi. Avvalo, ingliz tilshunosligida qo‘shma so‘zlar masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, mashhur lingvist Hans Marchand qo‘shma so‘zlarni ingliz tilidagi eng muhim so‘z yasash usullaridan biri deb hisoblab, ularni ikki yoki undan ortiq mustaqil



morfemalarning birlashuvi natijasida yuzaga keladigan yangi leksik birlik sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, kompozitsiya jarayoni tilning leksik tizimida yangi semantik birliklarning shakllanishiga xizmat qiladi [4]. Shuningdek, ingliz tilshunosligining taniqli vakillaridan biri Laurie Bauer ham qo'shma so'zlarni so'z yasashning muhim modeli sifatida baholab, ular orqali til iqtisodiyligi tamoyili amalga oshirishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, qo'shma so'zlar murakkab tushunchalarni qisqa va aniq shaklda ifodalash imkonini beradi [2]. Bundan tashqari, R. Quirk va uning hamkorlari ingliz tilining grammatik tizimini tadqiq qilar ekan, qo'shma so'zlarni morfologik birlik sifatida ko'rib, ularning tuzilishi hamda semantik munosabatlarini batafsil tasniflaydilar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, ingliz tilida qo'shma so'zlar yozilish shakliga qarab closed compounds, hyphenated compounds va open compounds kabi struktur modellarga bo'linadi [5]. Turkiy tillarda ham qo'shma so'zlar masalasi ko'plab olimlarning e'tiborini tortgan. Jumladan, turkolog olim N. A. Baskakov turkiy tillarda qo'shma so'zlar so'z yasash tizimining muhim qismi ekanligini ta'kidlab, ularning shakllanishida morfologik va semantik omillar muhim rol o'ynashini ko'rsatadi [1].

Qoraqalpoq tilshunosligida ham murakkab til birliklari, jumladan qo'shma strukturalar va ularning grammatik xususiyatlari ilmiy jihatdan o'rganilgan. Xususan, M. Dawletov va D. Seydullaeva o'z tadqiqotlarida qoraqalpoq tilidagi murakkab sintaktik birliklarning tuzilishi hamda semantik xususiyatlarini tahlil qilib, murakkab konstruktsiyalar bir nechta predikativ birliklarning o'zaro sintaktik bog'lanishi natijasida yuzaga kelishini ta'kidlaydilar [3]. Bundan tashqari, turkiy tillar sintaksisini o'rgangan G. A. Abdurahmanov ham murakkab til birliklarini tahlil qilar ekan, til tizimida komponentlarning o'zaro grammatik bog'lanishi yangi semantik birliklarni hosil qilishini alohida qayd etadi [6].

Shunday qilib, yuqoridagi olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, qo'shma so'zlar nafaqat so'z yasash jarayonining muhim ko'rinishi, balki tilning semantik va struktur rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi qo'shma so'zlarning struktur turlarini qiyosiy jihatdan o'rganish til tipologiyasi hamda komparativ lingvistika uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda ingliz va qoraqalpoq tillaridagi qo'shma so'zlarning struktur turlarini aniqlash hamda ularning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish maqsadida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-tipologik metod qo'llanilib, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi qo'shma so'zlarning tuzilishi, komponentlari hamda hosil bo'lish modellari o'zaro taqqoslandi. Natijada har ikki tilning so'z yasash tizimidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlab berildi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida deskriptiv metoddan foydalanildi. Ushbu metod yordamida qo'shma so'zlarning morfologik tuzilishi, ularning grammatik xususiyatlari



hamda til tizimidagi funksiyasi tavsiflandi. Ayniqsa, ingliz tilida uchraydigan qo'shma so'zlarning yozilish shakllari (closed, hyphenated va open compounds) hamda qoraqalpoq tilidagi qo'shma so'zlarning tuzilish modellari batafsil tasvirlandi.

Bundan tashqari, morfologik tahlil metodi orqali qo'shma so'zlarni tashkil etuvchi komponentlarning grammatik kategoriyalari hamda ularning o'zaro bog'lanish xususiyatlari o'rganildi. Shu bilan birga, semantik tahlil metodi yordamida qo'shma so'zlarning ma'no shakllanishi, komponentlar o'rtasidagi semantik munosabatlar va ularning yangi leksik birlik hosil qilishdagi roli aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda struktur tahlil metodi ham qo'llanilib, qo'shma so'zlarning tuzilish modellari, masalan, ot + ot, sifat + ot, fe'l + ot kabi struktur birliklar tahlil qilindi. Natijada ingliz tilida qo'shma so'zlarning yozilish shakliga asoslangan tasnifi mavjudligi, qoraqalpoq tilida esa ular asosan morfologik birikish orqali hosil bo'lishi aniqlab berildi.

Tadqiqot materiallari sifatida ingliz tilining zamonaviy lug'atlari, ilmiy lingvistik manbalar hamda qoraqalpoq tilshunosligiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, qoraqalpoq tilidagi murakkab til birliklarining struktur xususiyatlari haqida berilgan ilmiy qarashlar ham tadqiqotda hisobga olindi. Natijada qo'shma so'zlarning struktur modellari va ularning til tizimidagi o'rni aniqlab berildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari ingliz va qoraqalpoq tillarida qo'shma so'zlarning struktur tuzilishi hamda ularning hosil bo'lish modellari o'rtasida ma'lum o'xshashlik va farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Avvalo, ingliz tilida qo'shma so'zlar yozilish shakliga ko'ra bir nechta struktur turlarga bo'linishi aniqlanadi. Ular asosan closed compounds, hyphenated compounds va open compounds shakllarida namoyon bo'ladi.

Birinchi, closed compounds turidagi qo'shma so'zlar komponentlarning birikib yozilishi orqali hosil bo'ladi. Masalan:

blackboard (black + board)

classroom (class + room)

newspaper (news + paper)

sunlight (sun + light)

football (foot + ball)

raincoat (rain + coat)

snowfall (snow + fall)

Bu turdagi qo'shma so'zlar ingliz tilida eng keng tarqalgan struktur model hisoblanadi.

Ikkinchi, ingliz tilida hyphenated compounds, ya'ni defis orqali yoziladigan qo'shma so'zlar ham mavjud. Bunday birliklar ko'pincha sifat va ot kombinatsiyasida yoki murakkab atamalarda uchraydi. Masalan:



mother-in-law

well-known

part-time

up-to-date

long-term

check-in

Uchinchidan, ingliz tilida open compounds deb ataluvchi qo'shma so'zlar ham mavjud bo'lib, ular ikki yoki undan ortiq alohida yozilgan so'z orqali bitta ma'noni ifodalaydi. Masalan:

high school

post office

police station

coffee shop

bus stop

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qoraqalpoq tilida qo'shma so'zlar asosan morfologik birikish orqali hosil bo'ladi va ko'pincha bitta so'z sifatida yoziladi.

Birinchi dan, qoraqalpoq tilida ot + ot modeli juda keng tarqalgan. Masalan:

temirjol – temir + jol

baspasóz – baspa + sóz

elbası – el + bası

qolsağat – qol + sağat

Ikkinchi dan, sifat + ot modeli ham qo'shma so'z hosil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Masalan:

aqsaqal – aq + saqal

qarajol – qara + jol

aqjol - aq+jol

Uchinchi dan, fe'l + ot modeli orqali hosil bo'lgan qo'shma so'zlar ham uchraydi.

Masalan:

kózqaras

júrekjardı

basqosıw

Qoraqalpoq tilida qo'shma so'zlar ko'pincha yangi tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, temirjol transport tizimini, baspasóz esa ommaviy axborot vositalarini anglatadi.

Shuningdek, qoraqalpoq tilida murakkab sintaktik birliklarning tuzilishi ham tadqiq qilingan bo'lib, bunday birliklar bir nechta komponentlarning grammatik bog'lanishi orqali hosil bo'lishi ta'kidlangan .



Shunday qilib, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida qo'shma so'zlar yozilish shakliga ko'ra turli struktur modellarga ega bo'lsa, qoraqalpoq tilida ular asosan morfologik birikish orqali hosil bo'ladi. Shu bilan birga, har ikki til uchun qo'shma so'zlar tilning leksik boyligini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. O'tkazilgan tahlillar natijalarini umumlash tirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, ingliz va qoraqalpoq tillarida qo'shma so'zlar tilning leksik tizimini boyitishda muhim rol o'ynaydi. Avvalo, har ikki tilda qo'shma so'zlar yangi tushunchalarni ifodalash, murakkab semantik birliklarni qisqa va aniq shaklda yetkazish imkonini beradi. Shu sababli qo'shma so'zlar til iqtisodiyligi tamoyilining muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Birinchidan, ingliz tilida qo'shma so'zlarning struktur xilma-xilligi ancha keng ekanligi kuzatildi. Ya'ni bu tilda qo'shma so'zlar yozilish shakliga ko'ra closed, hyphenated va open compounds kabi turlarga bo'linadi. Bunday xilma-xillik ingliz tilining analitik xususiyati bilan bog'liq bo'lib, komponentlarning mustaqil yozilishi yoki defis orqali bog'lanishi ham keng qo'llanadi.

Ikkinchidan, qoraqalpoq tilida qo'shma so'zlar ko'proq morfologik birikish orqali hosil bo'lishi aniqlanadi. Bunda komponentlar ko'pincha bitta so'z shaklida yoziladi va yangi leksik birlikni hosil qiladi. Ayniqsa ot + ot, sifat + ot kabi struktur modellarning keng tarqalganligi kuzatildi. Bu holat turkiy tillarning agglutinativ xususiyati bilan bevosita bog'liqdir.

Bundan tashqari, qo'shma so'zlarning semantik shakllanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha qo'shma so'zning umumiy ma'nosi uning tarkibidagi komponentlarning ma'nolariga asoslanadi, biroq ayrim hollarda yangi, umumlashgan semantik mazmun ham yuzaga keladi. Masalan, ingliz tilidagi blackboard yoki qoraqalpoq tilidagi $\delta\alpha\pi\alpha\sigma\epsilon\zeta$ kabi birliklar dastlabki komponentlarning ma'nosiga asoslangan holda yangi leksik birlikni hosil qiladi.

Shu bilan birga, murakkab til birliklarining shakllanishi va ularning struktur xususiyatlari turkiy tillar sintaksisi va morfologiyasida ham keng o'rganilgan. Masalan, qoraqalpoq tilida murakkab konstruksiyalar bir nechta komponentlarning grammatik va semantik bog'lanishi orqali yuzaga kelishi ta'kidlanadi. Bu esa qo'shma birliklarning til tizimida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Natijalarni muhokama qilish jarayonida yana shuni ko'rish mumkinki, ingliz va qoraqalpoq tillari turli tipologik guruhlariga mansub bo'lsa ham, qo'shma so'zlarning hosil bo'lish prinsiplari ma'lum darajada o'xshashdir. Har ikki tilda ham ikki yoki undan ortiq komponentlarning birikishi orqali yangi leksik birlik hosil bo'ladi. Biroq struktur shakllanish usullari hamda yozilish qoidalari jihatidan ayrim farqlar mavjud.



Shunday qilib, qo'shma so'zlarni qiyosiy o'rganish nafaqat har ikki tilning leksik tizimini chuqurroq tushunishga, balki ularning tipologik xususiyatlarini aniqlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, ingliz va qoraqalpoq tillarida qo'shma so'zlar tilning leksik tizimini boyitishda muhim o'rin egallaydi. Avvalo, qo'shma so'zlar murakkab tushunchalarni qisqa va aniq shaklda ifodalash imkonini beradi hamda til iqtisodiyligi tamoyilining amalga oshishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida qo'shma so'zlar yozilish shakliga ko'ra closed compounds, hyphenated compounds va open compounds kabi turlarga bo'linadi. Bu esa ingliz tilining analitik xususiyati bilan bog'liq bo'lib, qo'shma so'zlarning yozilishida turli struktur modellar mavjudligini ko'rsatadi. Qoraqalpoq tilida esa qo'shma so'zlar asosan morfologik birikish orqali hosil bo'ladi va ko'pincha bitta so'z shaklida yoziladi. Ayniqsa ot + ot, sifat + ot hamda fe'l + ot modellari keng tarqalgan.

Shuningdek, qo'shma so'zlarning semantik shakllanishi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular yangi leksik birliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Har ikki til materiallari tahlili shuni ko'rsatdiki, qo'shma so'zlar komponentlar o'rtasidagi grammatik va semantik bog'lanish asosida hosil bo'ladi hamda tilning nominativ imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, qoraqalpoq tilida murakkab til birliklari va ularning struktur xususiyatlari tilshunoslar tomonidan o'rganilgan bo'lib, bunday birliklarning komponentlari o'zaro grammatik bog'lanish orqali yaxlit mazmunni ifodalashi ta'kidlangan. Bu esa qo'shma birliklarning til tizimida muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bor tasdiqlaydi. Shunday qilib, ingliz va qoraqalpoq tillarida qo'shma so'zlar struktur jihatdan turlicha shakllansa-da, ularning asosiy funksiyasi tilning leksik boyligini oshirish va yangi tushunchalarni ifodalashdan iboratdir. Shu sababli qo'shma so'zlarni qiyosiy jihatdan o'rganish til tipologiyasi hamda komparativ lingvistika uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baskakov, N. A. (1951). Karakalpakskij jazyk. Izdat. Akad. Nauk SSSR.
2. Bauer, L. (1983). English word-formation. Cambridge university press.
3. Dáwletov, M., & Seydullaeva, D. (2010). Házirgi qaraqalpaq tilinde qospa gápler. Nókis., «Qaraqalpaqstan.
4. Marchand, H. (1960). The categories and types of present-day English word-formation. (No Title).
5. Quirk, R., & Crystal, D. (2010). A comprehensive grammar of the English language. Pearson Education India.
6. Г. А. Абдурахманов ; Академия наук Узбекской ССР ; Институт языка и литературы им. А. С. Пушкина Ташкент : Издательство Академии наук УзбССР, 1960. 126 с.